

### THE APPLE OF THE BOBURIYS

Boymirova Gulshan Tursunmurot qizi

Student of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.

Tel: 998978090260

Iskandarov Sultanbek Mavlon oglu

Student of the National State University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tel: 998975353305

Obidova Gulchehra Bunyod qizi

Student of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Tel: 998990620631

### ANNOTATION

In this article we can see the characteristics of the Kohinur diamond belonging to the Baburids and how much it is valued not only in India but also in Iran, Afghanistan as well as in Britain which is one of the great countries. We can also see that these states are coming to terms with each other, believing that according to legend, diamonds bring power.

**Keywords:** Kohinur diamond, historical sources, diamond trip to London, queen's crown, in Humayun's memoirs, Gwalior province, Dalhaus monuments, claims to diamonds.

### INTRODUCTION

Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur nomi nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda hurmat bilan tilga olinadi. Ammo dastavval biz uning to'ng'ich o'g'li shahzoda Humoyyun Mirzoning oriyatiga berilgan yuksak baxo haqida so'z yuritmoqchimiz.

Ma'lumki, Bobir hind tuprog'iga ilk qadam qo'ygan paytida Hindistonda hokimyat parokandalikka yuz tutgan edi. Xususan Gwalior viloyatida roja Bikramaditya hokimlik qilayotgan edi (u shamsabodda Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan jangda vafot etadi). Panipatdagi g'alabadan so'ng Humoyun boshliq qo'shin Dehlidan o'tib ketma-ket qasrlarni ishg'ol qilib boradi. O'sha qasrlarni birida roja Bikramadityaning xotini, bo'yi yetgan ikki qizi va bir o'g'li yashardi. Rojaning 20 yoshdagi o'g'li Humoyunni iliq qarshi oladi. Otasining qotilini o'ldirgani uchun minatdorchilik bildiradi. Humoyun ham unga va uning oilasiga iliq muomilada bo'ladi. O'sha kecha Vays ismli bir bekni elliktacha yigiti bilan rojaning qasrida qoldirib, o'zi qasirning hovlisidagi boqqa chodir tiktirib, o'sha yerda tunaydi. Kechasi qasrda qo'qqistan to'polon ko'tariladi. Humoyun tezda qo'riqchilari bilan qasirga kirsam, Vaysning yigitlaridan biri ichki eshik oldida qonga belanib o'lib yotibdi. Ikkinchi qavatning zina poyasida turgan 18 yoshli go'zal qiz chuvalib yotgan ipak sarisini titroq qo'llari bilann olib yelkasiga yopishga urinayapti. Ma'lum bo'lishicha Vays rojaning shu qizini yoqtrib qolib navkarlari yordamida uni o'z xonasiga olib kelmoqchi bo'lgan. Qizning akasi qarshilik ko'rsatib, bir navkarni o'ldirgan. Endi buning qastiga navkarlar yosh rojaning o'zini o'ldirmoqchi bo'lib turganida, Humoyun kirib keladi. Rojani ozod qilib, Vaysni xibisga oldiradi. Qolganlarga ham munosib jazo belgilaydi. SHunda

zina poyadan yosh rojaning onasi qo'lida kichkina sadaf quticha bilan tushib keladi. U oliy tabaqaning o'qimishli ayollaridan edi. U Humoyunga yuzlanib: - shaxzoda, mening bisotimdagi eng katta boyligim mana shu qutichaning ichida. Men uchun farzandlarim dunyoning hamma boylıklaridan azizroq. Siz o'g'limning jonini qaytarib berdingiz. Mana bu qutichadagi ulug' olmosni sizga atayman, deya qutichani Humoyunga beradi. Bu uning oriyati uchun berilgan yuksak baho edi.

Bu olmosga Humoyuning o'g'li buyuk sarkarda Akbar umri davomida olmosga biror marta ham qo'l tekizmaydi. Keyinchalik afsonaviy tosh SHoxjaxon ixtiyoriga o'tadi. Ma'lumki SHohjaxon mashhur Tojmahalni qurdiradi. Keyinchalik, uning o'g'li Avrangzeb uni Lohurdagi Badshoshi masjidiga joylashtiradi. Olmos u yerda Nodirshox davrigacha (1739- yil) saqlanadi. O'z davrida Nodirshox Ko'hinurni „Agar bir odam beshta tosh olib, birini sharqqa, birini g'arbga, birini shimolga, birini janubga va beshinchisini osmonga otib, toshlar yetgan manzil oralig'ini oltin, marvaridlar bilan to'ldirsa, Ko'hinur qiymatiga teng boylık bo'ladi“ degan edi. 1747-yilda Nodirshoxga uyishtirilgan suiqasdan so'ng olmos Afg'onistonga Ahmadshox Abdali ixtiyoriga o'tadi. 1830- yili SHox xo'ja Afg'onistonni bosib olganidan so'nga tosh yana Lohurga keyinchalik esa Panjobga Maxaraja Ranjit ixtiyoriga o'tadi. Panjobda o'z hukumronligini o'rnatgan Ranjit Singx 1839- yil olamdan o'tadi. 1849- yining 29- martida Lohurda Britaniya bayrog'I ko'tariladi. Bu Panjob ham o'z-o'zidan Britaniya qaramligiga o'tadi degani edi.

Maxarajni boshqa boylıkları qatorida Kohinur ham Britaniya ixtiyoriga o'tadi. Bu ishga boshqosh bo'lgan Lord Dalhaus Ko'hinurni qirolichaga kata mamnuniyat bilan sovg'a qiladi.

Lord Darhaus o'z estaliklarida shunday yozgan edi: Men olmosni qirolichadan xabar kelguncha plashinning cho'ntagiga saqladim. Nihoyat, qirolichadan olmosni Britaniyaga olib boorish to'g'risida maktub kelganidan so'ng cho'ntagimni qaragam olmos yo'q edi. Shunda bir mudad qotib qoldim va munkillab qolgan xizmatkor cholni chaqirib, undan cho'ntagimdagi narsalarni so'radim. U „ha men olgandim. Xonangizdagi qutining ichida“ – dedi bamaylixotir.

Tezda olib kel-chi, - dedim hajayon bilan. U kichkina qutini keltrdi- da ichidan olmosni olib menga uzatdi „, SHunchalikmi, bu odiy shisha-yu, xo'jayin“ – dedi.

### OLMOSNING LONDONGA SAYOHATI

Lord Dalhaus 1850-yilda Maxarajani 13 yoshli o'g'li Dulip singx Ko'hinurni o'z qo'li bilan qirolicha Viktoriyaga topshirishi uchun Britaniyaga safar uyishtiradi. Unga g'arbiy Belgiyada xizmat qilgan doktor Jon Spensi Login hamrohlik qiladi. O'sha paytda Login olmosni 1000000 funtga baholaydi. Nihoyat 1850- yili 3- iyul kuni Kohinur tantanali ravishda qirolicha Viktoriyaga topshiriladi. Bu xizmatlari uchun Login 1854- yili qirollik ritsari unvoniga loyiq topiladi. Ma'lumki qadimiy bitiklarda Ko'hinur xususida „Kimki bu olmosga egalik qilsa dunyoga hukumron bo'ladi. Ammo u faqat xudo yoki ayolga tegishli bo'lishi mumkin“ deyiladi. Olmos Britaniyaga keltrilgandan beri qirollikni faqat ayol jinsiga mansub qirolichalar boshqarib, kelmoqda. 1852- yil Amsterdamsda shaxzoda Albertning texnik xizmatchisi Jeyms Tennad tomonidan olmosga ishlov beriladi. Ishlov berish jarayonida 186 karat bo'lgan olmos 105 karatgacha kichrayadi. Bir paytlar dunyodagi eng katta hisoblangan Ko'hinur shundan so'ng o'z qiymatini yo'qotadi. Qirolicha Viktoriyadan so'ng qirolicha Aleksandra olmosni yangi tojga o'rnatdi. SHundan boshlab olmos qirolicha tojini bezab kelmoqda. 2002- yili ona qirolicha vafotidan so'ng olmos toj bilan birga Tover of London qasriga o'tkaziladi.

Hind afsonasiga ko'ra bu olmos o'z egasini tanlaydi. Unga ega chiqqan kimdir qudratli boshqasi esa xonavayron bo'lgan. SHuning barobarida Ko'hinur olmosi boburiy shahzodalarga kuch-qudrat olib kelgan. Hozirda Ko'hinur olmosi dunyodagi eng qimmat bosh kiyim nomiga sazovor bo'lgan Angilya qirollik tojining markazida turibdi va bu tojdagi 28000 qimmatbaho toshlarning eng kattasidir. Ko'hinur olmosi so'ngi yuz yil ichida qayta sayqallash paytida 43% vaznini yo'qotgan. Bu olmos Angilya qirollariga shon-shuhrat keltirgan. Bahodirshox II vafotidan keyin bu olmos Angilyaga olib keltirilgan shu davrdan boshlab buyuk boburiylar sulolasi tanazzulga uchradi. Angilya esa dunyodagi o'z o'rnini topib buyuk davlatga aylandi. Boburiylarning 332 yillik tarixiga guvoh bo'lgan Ko'hinur olmosi Angilyada ham aynan shu ishni bajaryapti. Balki shu boisdan ham Hindiston hukumati Ko'hinurni Hindistonga qaytarishga harakat qilayotgandir. Shu o'rinda hozirda ham Ko'hinurga bo'lgan da'volar hamon to'xtagani yo'q. 1976- yili Pokiston bosh vaziri Zulfiqor Ali Bxutto Britaniya bosh vaziri Jim Sallagandan olmosni Pokistonga qaytarishni suragan edi. 1997-yili esa qirolicha Elizabetta II Pokiston va Hindiston mustaqiligini 50 yilligi munosabati bilan tashrif buyiradi. Shunda bir necha mahalliy zodagonlar Ko'hinurni Hindistonga qaytarishi talab qilib chiqishadi. 2000-yil noyabrda esa Afg'onistonda o'z rejimni o'rnatishga harakat qilayotgan Tolibon guruhi ham Britaniyani hukumati Ko'hinurni Afg'onistonga qaytarish kerak degan qat'iy talabni qo'ydi. Eron matbuoti esa olmosning egasi esa Eron hukumati degan davolar bilan chuqishlar qilib turadi.

Aslida uning asil egasi kim? Bu o'rinda Olaf Karoining „Tayms“ gazetasidagi fikrlarni eslatamiz : „U 203 yil Dehlida, 66 Kandahor va Kobulda, 127 yil Britaniyada bo'ldi. Ko'hurning haqiqiy egalari turkiy qavmga mansub Hindiston hukumdorlari edi“ , - deya yozadi Olaf Karoi o'z maqolasida. Albatta, hozirgi zamonda olmosga ochiqcha da'vo bilan chiqish bemanilik bo'lar, ammo turli sohalarda taxsil olayotgan bugungi yoshlarimiz o'z ilmi odobi va milliy oriyati bilan Ko'hinurga da'vo qila oladi deb o'ylaymiz kelajakda dunyo jamoatchiligi o'zbek o'g'lonlari ilmi, odobi va insoniy oriyatiga xolisona baho berib, Ko'hurni aynan bizga munosib ajabmas. Bu keltrilgan ma'lumotlardan tashqari Ko'hinur olmosi haqida ko'plab afsonalar ham mavjud. Ulardan qadimshunos Sanskrit bundan 5000 yil oldin Ko'hinur topilgani haqida yozib qoldirgan. Bir nechta hind miflarida ham Ma'bud Krishna Ko'hinurni Jamabavatadan olgani aytiladi. Rivoyatga ko'ra Krishna olmosni Satrajitning ukasi Satrajizni o'ldirib olganlikda ayblanadi. (aslida u ov paytida sher hamlasidan o'ladi). Vaholanki, olmosni Jamabavata olgan bo'ladi. O'zini anglsh maqsadida Krishna Jmabavata bilan jang qiladi. Krishna Jamabavataning qo'shinini tor- mor qilib, olmosni Satrajiga qaytaradi. Satrajit uyalganidan Krishnaga qizi bilan birga olmosni ham taklif qiladi. Ammo Krishna uning qizi Satyapxamani qabul qilib, olmosni rad etgani haqida ham afsonalar ham yaratilgan.

Tarixiy manbaalarning guvohlik berishicha Ko'hinur Kakatiya qirolligining (Hindiston) Guntur viloyati dunyodagi eng qadimiy olmos konlaridan birida topilgan. Bu kon 1730- yili Braziliyaliklar tomonidan qayta kashf etilmaguncha faqat mana shu olmos uchun ham eslanar edi. Ilmiy manbaalarda „Golsonda“ nomi bilan tilga olinadigan ushbu kon olmoslarni o'zining sofliqi, shaffofligi va tiniqligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular juda noyob va kamyobdir . Mazkur olmos dastlab Kakatiya qirolligining mulki hisoblangan. Kilji dinatsiyasiga mansub bo'lgan bu olmosni G'iyosiddin tug'liq shox keyinchalik o'z xoqoni ulug' xonga yuboradi. Shu tariqa barcha oltin marvarid, fil suyaklari bilan birga Ko'hinur ham imperya mulkiga aylanadi.

Keyinchalik bu olmos 1526- yildan to Britaniya bosqiniga imperiya sohibi Bobur va uning avlodlari ixtiyoriga o'tadi. Ko'hinur birinchi marta 1526- yil „Boburnoma” da eslanadi. Unda yozilishicha, olmos 1294- yil noma'lum Malva rojasiga tegishli bo'lgan. Bobur mazkur olmosning qiymati „Tamomi olamning ikki yarim kunlik sarfiga barobar” ekanligini aytadi. Xulosa qilib aytganda, Ko'hinur olmosi asrlar osha vaqt o'tgan bo'lsa ham o'z qiymatini yo'qotmagan, o'zining bor salovati bilan dunyo ahlini lol qoldirishga erishgan olmosdir. Shu jumladan, bu olmos dunyodagi eng qari olmoslardan biridir. Unga Boburiy shaxzodalar ham katta e' tibor bilan qarashgan. Bu olmos eng kichik zarralardan yasalgan buyuk asarga o'xshaydi haykaltarosh o'z asarini yaratganda uning qilgan mehnatlari ko'z o'ngida mujassamlashadi, balki bu olmosni tog' qaridan bunyod qilgan inson ham o'z mehnati shijoatining mahsuli paydo bo'layotganini endi bilayotgandir. Garchi u hozir hayot bo'lmasa ham shunday bo'lsada uning nomidan buyuk olmos qoldi. Bunday javohirlarning bahosi bo'lmaydi. Bu olmosning oshiq-lari bo'lishi mumkin, qanchadan – qancha oshu-ftalari bo'lishi mumkin. Lekin Ko'hinur hech qaysi olmos bilan sayqallashmaydi, har jabhada belashmaydi. U haqiqiy san'at asarining o'zidir

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boburnoma”- T:Yulduzcha nashriyoti,1989-yil
2. WWW.ziyouz.com kutubxonasi
3. O'zME. Birinchi jild.Toshkent.2000-yil
4. SHarofiddin To'laganov "Hindiston Buyuk Biritaniyadan Ko'hinur olmosini qaytarish niyatidan qaytmadi"maqolasi. 2016-yil.